

**QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/30.12.2019.B.20.04 RAQAMLI ILMIY
KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

ABIDOVA SADOKAT ABDUAXADOVNA

**“UMURTQASIZLAR ZOOLOGIYASI” KURSINI TA’LIMNI
RAQAMLASHTIRISH ASOSIDA O‘QITISH METODIKASINI
TAKOMILLASHTIRISH
(PEDAGOGIKA OLIY TA’LIM TASHKILOTLARI MISOLIDA)**

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (biologiya)

**PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Nukus - 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of the dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD)

Abidova Sadokat Abduaxadovna

“Umurtqasizlar zoologiyasi” kursini ta’limni raqamlashtirish asosida o‘qitish metodikasini takomillashtirish (pedagogika oliy ta’lim tashkilotlari misolida)..... 3

Абидова Садокат Абдуахадовна

Совершенствование методики преподавания курса “Зоология беспозвоночных” на основе цифровизации образования (на примере педагогических высших образовательных организаций)..... 23

Abidova Sadokat Abduakxadovna

Improving the teaching methodology of the course “Invertebrate Zoology” based on the digitalization of education (using the example of pedagogical higher educational organizations)..... 45

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 49

**QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/30.12.2019.B.20.04 RAQAMLI ILMIY
KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

ABIDOVA SADOKAT ABDUAXADOVNA

**“UMURTQASIZLAR ZOOLOGIYASI” KURSINI TA’LIMNI
RAQAMLASHTIRISH ASOSIDA O‘QITISH METODIKASINI
TAKOMILLASHTIRISH
(PEDAGOGIKA OLIY TA’LIM TASHKILOTLARI MISOLIDA)**

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (biologiya)

**PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Nukus – 2024

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiya mavzusi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi
izuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.2.Phd/Ped3513 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Toshkent davlat pedagogika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi –
(www.karsu.uz), hamda «Ziyonet» axborot ta'lim portalida – www.ziyonet.uz joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Shaxmurova Gulnara Abdullayevna
biologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponenlar:

Sarimova Dildora Soatalievna
pedagogika fanlari falsafa doktori, dotsent

Kochanov Davlethay Erejepovich
biologiya fanlari falsafa doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Guliston davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Qoraqalpoq davlat universiteti huzuridagi PhD.03/30.12.2019.B.20.04 raqamli Ilmiy kengash asosidagi bir martalik Ilmiy kengashning 2024-yil "26" sentyabr kuni soat 11⁰⁰ daqi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 230112, Nukus shahri, Ch. Abdirov ko'chasi, 1-uy. Universitet majlislar zali. Tel.: (+99861) 223-60-78, faks (+99861) 223-60-78, E-mail: karsu info@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Qoraqalpoq davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№210-raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 230112, Nukus shahri, Ch. Abdirov ko'chasi, 1-uy. Tel.: (+99861) 223-60-78.

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil "09" sentyabr kuni tarqatildi.
(2024-yil "09" sentyabrdagi №4-raqamli reestr bayonnomasi)



M.A. Jumanov

Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik Ilmiy
kengash raisi, b.f.d., professor

M.K. Begjanov

Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik Ilmiy
kengash Ilmiy kotibi, b.f.d., dotsent

Ya.I. Ametov

Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik Ilmiy
kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi,
b.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda ta'limni raqamlashtirish va globallashtirish hamda sun'iy intellektni jadal joriy etish sharoitida sifatli va raqobatbardosh ta'lim, barqaror iqtisodiy o'sishga erishish, fan va texnologiyalarni rivojlantirish, ijtimoiy xizmatlar sifatini oshirishda muvaffaqiyat garovidir. Ta'limni raqamlashtirish uning sifatini oshirishga imkon beradi, ta'lim sohasiga raqamlashtirishni keng joriy etish uchun esa ta'lim jarayoniga kreativ yondashishni talab qiladigan yangi texnologiyalar va usullarni joriy qilish zarur. Ta'limni raqamlashtirishga asoslangan zamonaviy o'qitish texnologiyalari va usullaridan foydalangan holda biologiya fanlarini o'qitishda kompetensiyaviy yondashuvga ega bo'lgan yuqori malakali, professional kadrlarning roli ortib bormoqda.

Dunyoda ta'lim sohasida raqamlashtirishni joriy etishning boshlanishi XX asrning 90-yillari bo'lib, Evropa, Osiyoning rivojlangan mamlakatlari va AQShda axborot texnologiyalarining keng rivojlanishi, ularning iqtisodiy va ijtimoiy sohalarda qo'llanilishi va internetning paydo bo'lishi bilan bog'liq. AQSH, G'arbiy Yevropa va Osiyoning rivojlangan davlatlarida ta'limni raqamlashtirish tajribasiga asoslanib, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanmasdan ta'limni modernizatsiya qilish va samaradorligini oshirish mumkin emasligi isbotlangan. Bunga maktab, kollej va oliy o'quv yurtlarining zarur texnik vositalar bilan yetarli darajada ta'minlangani, o'quv jarayonida eng so'nggi axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalanilayotgani, milliy markazlar va qo'mitalar tomonidan axborot bazasini yaratish bo'yicha uzluksiz faoliyati tufayli mazmuni doimiy ravishda yangilanib, kengaytirilayotgan erkin foydalanish imkoniyati bo'lgan elektron o'quv dasturlari keng ko'lamda ishlab chiqilgani va ommalashtirilgani ham yordam bermoqda.

O'zbekiston Respublikasida hozirgi kunda zamonaviy davlatga xos tamoyillarga asoslangan yangi jamiyatning bunyod etilishi ro'y bermoqda. O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining 29 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimda Prezident Shavkat Mirziyoyev "...Bugun xalqimizning qudratli salohiyati to'la ro'yobga chiqarilayotganida, O'zbekistonda yangi Uyg'onish davri – uchinchi Renessans poydevoriga asos solinmoqda. Zero, bugungi O'zbekiston kechagi O'zbekiston emas. Va bizning xalqimiz kechagidek emas.", degan fikrni bildirgan. Bu O'zbekiston yangi bosqichga – ulkan o'zgarishlar va yutuqlar bosqichiga qadam qo'yganidan dalolat beradi. Hozirgi kunda mamlakatimizda ta'lim sohasini takomillashtirishga katta e'tibor qaratilmoqda, bu yuqori malakali, raqobatbardosh, kasbiy kompetentligi yuqori darajada rivojlangan kadrlar tayyorlashni taqozo qiladi. Zamonaviy o'qituvchilar, birinchi navbatda, bolalarga yuqori saviyada sifatli ta'lim berish, shuningdek, ularga o'z o'zlarini takomillashtirish imkoniyatini berish haqida g'amxo'rlik qilishlari kerak. Prezidentimizning 2022 yil 20-dekabrda Oliy Majlisga yo'llagan murojaatnomasida ta'lim Yangi O'zbekistonda eng muhim sarmoya ekanligi qayd etilgan.

O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar zamirida pedagogik kadrlarning ta’lim amaliyotida kompetensiyaviy yondoshuvga asoslangan va kasbiy ko‘nikmalarni shakllantirishga qaratilgan yangicha metodikalarni joriy etish dolzarb hisoblanadi. Globallashtirish va raqamlashtirish davrida respublikamizda raqamli iqtisodiyotni faol rivojlantirish, shuningdek, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini barcha tarmoq va sohalarga, birinchi navbatda, davlat boshqaruvi, ta’lim, sog‘liqni saqlash va qishloq xo‘jaligiga keng joriy etish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

So‘nggi vaqtlarda O‘zbekistonda biologiya va kimyo fanini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda, bu O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 12 avgustdagi PQ-4805-son “Kimyo va biologiya yo‘nalishlarida uzluksiz ta’lim sifati va ilm-fan samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorida aks topgan. O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentyabrdagi O‘RQ-637-sonli “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi, 2019 yil 11 iyuldagi PF-5763-son “Oliy va o‘rta maxsus ta’lim sohasida boshqaruvni isloh qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2019 yil 8 oktyabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi, 2020 yil 8 oktyabrdagi PF-6079-sonli “Raqamli O‘zbekiston-2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 11 iyuldagi PQ-4391-son “Oliy va o‘rta maxsus ta’lim tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2020 yil 27 fevraldagi PQ-4623-son “Pedagogik ta’lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2020 yil 28 apreldagi PQ-4699-son “Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorlarida hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda, innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Mamlakatimizda biologiyani o‘qitish metodikasini takomillashtirishga mahalliy olimlar A.T. G‘ofurov, O.Mavlonov, J.O.Tolipova, D.D.Sharipova va boshqalar katta hissa qo‘shganlar. Ta’limni modernizatsiya qilish sharoitida zamonaviy pedagogning kasbiy kompetentligini oshirish muammolariga K.P.Abduraxmonov, N.N.Azizxo‘jaeva, S.O.Olimqulov, U.E.Raxmatov, A.I.Sultonov, R.A.Xalitova va boshq. kabi olimlarning ishlari bag‘ishlangan. Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim jarayoni sifatini oshirishning uslubiy asoslari U.Sh.Begimqulov, R.B.Rajabova, Sh.Sh.Sodiqovlarning tadqiqotlarida keltirilgan. Pedagogik fanlarni o‘qitish metodikasini

takomillashtirishda o'qituvchilarning kreativ va uslubiy kompetentligining roli N. A. Muslimov, S. E. Nizomxonov, Sh. S. Sharipov va boshqalarning ishlarida ochib berilgan. Tabiiy fanlarni o'qitishda multimedia texnologiyalaridan foydalanishning umumiy masalalari F. A. Olimova, N. A. Karimova, L. M. Qoraxonova, G. A. Shaxmurova, M. I. Hamdamova va boshqalarning ishlarida ko'rib chiqilgan.

E. Zeer, Ye. P. Il'in, V. A. Kozireva, Yu. G. Kubliskaya, F. K. Mizambaeva, A. A. Pecherkina, N. N. Potryasova, N. V. Solovova, O. Yu. Xatsrinova, A. V. Xutorskoy, F. V. Sharipov kabi MDH mamlakatlari yetakchi olimlarining pedagogik va metodologik ishlarida o'qituvchi faoliyatining psixologik tuzilmasi, pedagog shaxsining pedagogik qobiliyatlari, oliy ta'lim tizimida o'qituvchining umumiy pedagogik tayyorgarligi ko'rib chiqilgan. Tabiiy-biologiya fanlarini o'qitish metodikasini takomillashtirish bo'yicha amaliy ishlanmalar N. V. Grizodub, I. D. Zverev, Ye. I. Kondratenko, Ye. V. Levkina, L. N. Orlova, A. P. Pugovkina, L. N. Suxorukova va M. N. Mirnova, Ye. I. Yushina va boshq. kabi olimlar tomonidan ishlab chiqilgan. Pedagogning kasbiy kompetentligi va kasbiy faoliyatida kreativ yondashuvning rolini I. S. Bekesheva, S. R. Buxareva, R. U. Gilmutdinova, M. M. Kashapov, D. V. Miroshnikova, V. V. Popov, A. V. Xutorskoy va boshqalar o'rganishgan. Ta'limni raqamlashtirish va raqamlashtirish sharoitida ta'lim tizimini takomillashtirish muammolariga M. E. Vayndorf-Sisoeva, Yu. V. Vaynshteyn, A. M. Sanko, A. A. Stokov, A. Yu. Uvarov va boshqalar o'z ishlarini bag'ishlaganlar.

Xorijiy mamlakatlarda ta'limni raqamlashtirishning zamonaviy sharoitida Biologiya va Zoologiyani o'qitish metodikasini takomillashtirish bo'yicha fundamental tadqiqotlar quyidagi olimlar tomonidan olib borildi: Aida Verdes, Davis-Berg E. C., Kocot K. M., Dr. C. V. Suresh Babu, Harland, T., Ismail Shalaby, J. F. Beltrán, M. Conradi, F. Gálvez, Marina Nogueira dos Santos Rodrigues, Carlos Patrick Pereira da Silva, Russell A. P., Zupanc GKH va boshq.

Yuqorida keltirilgan ilmiy tadqiqotlar "Umurtqasizlar zoologiyasi" kursini o'qitish metodikasini takomillashtirish uchun fundamental asos bo'lib xizmat qiladi va bo'lajak mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlash vazifasini bajaradi. Ammo yuqorida tilga olingan manbalarda "Umurtqasizlar zoologiyasi" kursini ta'limni raqamlashtirish asosida o'qitish metodikasini takomillashtirish muammosi O'zbekistonda maxsus ob'ekt sifatida ko'rib chiqilmagan, bu esa ta'limni raqamlashtirish asosida ushbu kursni o'qitish metodikasini takomillashtirishning metodologik asoslarini o'rganish zarurligini taqozo etadi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat pedagogika universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining I-OT-2019-8 - "Umumiy o'rta ta'lim maktablarining tabiiy (fizika va biologiya) fanlari uchun yangi avlod elektron o'quv-metodik qo'llanmalarini yaratish va o'quv jarayoniga joriy etish" (2019-2021 yillar) mavzusidagi innovatsion loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi "Umurtqasizlar zoologiyasi" kursini ta'limni raqamlashtirish asosida o'qitish metodikasini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

raqamlashtirish sharoitida fanni o‘qitish sifatini ta’minlash uchun kasbiy kompetentlikning bosqichma bosqich shakllanishini aniqlash;

“Umurtqasizlar zoologiyasi” kursini ta’limni raqamlashtirish asosida o‘qitish metodikasini takomillashtirish;

“Umurtqasizlar zoologiyasi” kursini ta’limni raqamlashtirish asosida o‘qitish metodikasini baholash modeli va mezonlarini takomillashtirish va uni amalga oshirish mexanizmini ishlab chiqish;

pedagoglarning raqamli ta’lim shakllari va usullarini joriy etishga tayyorligini ta’minlaydigan, “Umurtqasizlar zoologiyasi” kursini ta’limni raqamlashtirish asosida o‘qitish metodikasini samaradorligini tajribaviy ravishda asoslash.

Tadqiqotning obyekti sifatida “Umurtqasizlar zoologiyasi” kursini ta’limni raqamlashtirish asosida o‘qitish metodikasini takomillashtirish jarayoni belgilanib, tajriba-sinov ishlariga Toshkent davlat pedagogika universiteti, Jizzax davlat pedagogika universiteti va Navoiy davlat pedagogika instituti jami 410 nafar talabalari jalb etilgan.

Tadqiqotning predmeti “Umurtqasizlar zoologiyasi” kursini ta’limni raqamlashtirish asosida o‘qitish metodikasini takomillashtirishning mazmuni, shakllari, usullari va vositalari hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda mavzuga oid ilmiy-uslubiy, psixologik va pedagogik adabiyotlar tahlili, me’yoriy hujjatlar, pedagogning kasbiy standarti, darslarda raqamlashtirilgan o‘qitish vositalari, o‘qituvchilar faoliyatini kuzatish, anketa so‘rovlarini o‘tkazish, pedagogik tajriba, tadqiqot natijalarini matematik va statistik tahlil qilish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

“Umurtqasizlar zoologiyasi” kursini ta’limni raqamlashtirish asosida o‘qitish metodikasini takomillashtirish imkoniyatlari sub’ektlarining o‘zaro raqamli munosabatini qamrab olgan konnektivizm tamoyillariga ko‘ra bo‘lajak biologiya o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish traektoriyasini bosqichma-bosqich shakllantirish asosida takomillashtirilgan;

“Umurtqasizlar zoologiyasi” kursini ta’limni raqamlashtirish asosida o‘qitish metodikasini takomillashtirish samaradorligi elektron ta’lim shablonlari va raqamli kontentni joriy etishga yo‘naltirilgan shaxsning integrativ- dinamik va kreativ fikrlashni bosqichma-bosqich rivojlantirish hamda ta’lim maqsadlariga adekvat moslashtirish asosida takomillashtirilgan;

“Umurtqasizlar zoologiyasi” kursini ta’limni raqamlashtirish asosida o‘qitish metodikasini takomillashtirish jarayoni adaptiv, variativ va rizomatik paradigmalar yaxlitligini ta’minlashga qaratilgan biologik obektlar va tushunchalarning taksonometrik ierarxiyasini mantiqiy - gnoseologik tahlil qilish hamda ta’lim jarayonini shaxsiylashtirish va individuallashtirishga frontal ustuvorlik berish asosida takomillashtirilgan;

“Umurtqasizlar zoologiyasi” kursini ta’limni raqamlashtirish asosida o‘qitish metodikasini takomillashtirish modeli formal, noformal va informal ta’lim sharoitlarning integrativ xususiyatlarini o‘zaro izchil uyg‘unlashtirishga qaratilgan

kognitiv-faoliyatli, motivatsion-kreativ baholash mezonlarini tahliliy-faktorli aniqlashtirish asosida takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

“Umurtqasizlar zoologiyasi” kursini ta’limni raqamlashtirish asosida o’qitishning psixologik-pedagogik, ilmiy-uslubiy asoslari ishlab chiqilgan;

buyurtma berilgan paytdan boshlab uni amalga oshirishgacha raqamlashtirish sharoitida bo’lajak biologiya o’qituvchilarining kasbiy kompetentligini oshirish modeli ishlab chiqilgan;

“Umurtqasizlar zoologiyasi” kursining asosiy bo’limlari bo’yicha darslar texnologiyasi takomillashtirilgan: darslarning maqsadi, vazifasi, shakllari, usullari aniqlangan, texnologik xaritasi, o’quv rejasi, mazmuni va metodikasi, innovatsion va axborot texnologiyalari va ularni nazariy, amaliy va mustaqil ta’lim shakllari jarayonida qo’llash metodikasi ishlab chiqilgan;

“Umurtqasizlar zoologiyasi” kursini ta’limni raqamlashtirish asosida o’qitish usullarini takomillashtirish bo’yicha sinama dastur ishlab chiqilgan, ushbu kurs bo’yicha uslubiy qo’llanma ishlab chiqilgan va amaliyotga tatbiq etilgan bo’lib, u ta’limni raqamlashtirish sharoitida bo’lajak zoologiya o’qituvchilarining kasbiy kompetentligini oshirishga yordam beradi;

auditoriya va onlayn ta’lim sharoitida “Umurtqasizlar zoologiyasi” kursi bo’yicha o’quv-uslubiy majmua ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etilgan;

“Umurtqasizlar zoologiyasi” kursini o’qitish metodikasini takomillashtirish maqsadida “Umurtqasizlar zoologiyasidan laboratoriya va amaliy ishlar” o’quv qo’llanmasi ishlab chiqilgan va amaliyotga joriy etilgan;

o’quv-tarbiyaviy jarayonni axborot bilan ta’minlash tizimiga elektron uslubiy resurslar kiritilgan: “Umurtqasizlar zoologiyasi: amaliy va laboratoriya ishlari” elektron o’quv qo’llanmasi, “Umurtqasizlar zoologiyasi” internet-sayti, Quizlet o’rgatuvchi internet ilovasi asosida “Umurtqasizlar zoologiyasi” kursi yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi qo’llanilgan yondashuv va usullar, rasmiy manbalardan olingan nazariy ma’lumotlardan foydalanilganligi, respublikamiz va xorijiy mamlakatlar olimlari, shuningdek amaliyotchilarining ishlariga asoslanilganligi, o’tkazilgan tahlillar va tajriba ishlarining samaradorligini matematik statistika usullari orqali tekshirilganligi, o’quv jarayoniga xulosalar va tavsiyalarning joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli idoralar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati fanni o’qitish sifatini oshirish uchun ta’limni raqamlashtirish sharoitida bo’lajak biologiya o’qituvchilarining kreativ kompetentligini rivojlantirishning zarurligini nazariy asoslab berilishi, fanni o’qitish samaradorligini oshirishga yordam beruvchi raqamli ta’lim resurslaridan, interaktiv dasturiy vositalardan foydalanishga yo’naltirilgan yangi nazariy va ilmiy-uslubiy xususiyatga ega ma’lumotlarni ishlab chiqish bilan belgilanadi Olingan natijalar ta’limni raqamlashtirish asosida “Umurtqasizlar zoologiyasi” kursini o’qitish metodikasini takomillashtirish uchun asos bo’lib, o’qitish samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ta'limni raqamlashtirish asosida biologiya o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini oshirishning didaktik tizimini ishlab chiqish, "Umurtqasizlar zoologiyasi" kursini o'qitish samaradorligini oshirishga ko'maklashuvchi axborot-didaktik bazaga ega elektron o'quv resursini joriy etish; ta'limni raqamlashtirish sharoitida "Umurtqasizlar zoologiyasi" kursini o'qitish metodikasini baholash modeli va mezonlarini takomillashtirish va uni amalga oshirish mexanizmlarini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Umurtqasizlar zoologiyasi" kursini ta'limni raqamlashtirish asosida o'qitish metodikasini takomillashtirish (pedagogika oliy ta'lim tashkilotlari misolida)ga doir tadqiqot natijalari asosida:

sub'ektlarining o'zaro raqamli munosabatini qamrab olgan konnektivizm tamoyillariga ko'ra bo'lajak biologiya o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish traektoriyasini bosqichma-bosqich shakllantirish asosida takomillashtirishga oid takliflar "Umurtqasizlar zoologiyasidan laboratoriya va amaliy ishlar (rus tilida)" nomli o'quv qo'llanma mazmuniga singdirilgan (Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetining 2024-yil 9-yanvardagi 11-05-44/04-son dalolatnomasi). Natijada ta'limni raqamlashtirish asosida "Umurtqasizlar zoologiyasi" kursini o'qitish metodikasini takomillashtirish imokni kengaytirilgan;

elektron ta'lim shablonlari va raqamli kontentni joriy etishga yo'naltirilgan shaxsning integrativ-dinamik va kreativ fikrlashni bosqichma-bosqich rivojlantirish hamda ta'lim maqsadlariga adekvat moslashtirish asosida takomillashtirishga oid tavsiyalar "Umurtqasizlar zoologiyasidan laboratoriya va amaliy ishlar (rus tilida)" nomli o'quv qo'llanma mazmuniga singdirilgan (Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetining 2024-yil 9-yanvardagi 11-05-44/04-son dalolatnomasi). Natijada raqamlashtirish sharoitida "Umurtqasizlar zoologiyasi" kursini o'qitish metodikasini takomillashtirishning didaktik ta'minotini rivojlantirish imkoni kengaytirilgan;

adaptiv, variativ va rizomatik paradigmalarni yaxlitligini ta'minlashga qaratilgan biologik obektlar va tushunchalarning taksonometrik ierarxiyasini mantiqiy - gnoseologik tahlil qilish hamda ta'lim jarayonini shaxsiylashtirish va individuallashtirishga frontal ustuvorlik berish asosida takomillashtirishga oid tavsiyalar "Umurtqasizlar zoologiyasidan laboratoriya va amaliy ishlar (rus tilida)" nomli o'quv qo'llanma mazmuniga singdirilgan (Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetining 2024-yil 9-yanvardagi 11-05-44/04-son dalolatnomasi). Natijada raqamlashtirish sharoitida "Umurtqasizlar zoologiyasi" kursini o'qitish metodikasini baholash modeli va mezonlarini takomillashtirishga sharoit yaratilgan;

formal, noformal va informal ta'lim sharoitlarning integrativ xususiyatlarini o'zaro izchil uyg'unlashtirishga qaratilgan kognitiv-faoliyatli, motivatsion-kreativ baholash mezonlarini tahliliy-faktorli aniqlashtirish asosida takomillashtirishga oid xulosalar "Umurtqasizlar zoologiyasidan laboratoriya va amaliy ishlar (rus tilida)" nomli o'quv qo'llanma mazmuniga singdirilgan (Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetining 2024-yil 9-yanvardagi 11-05-44/04-son

dalolatnomasi). Natijada pedagoglarning raqamli ta'lim shakllari va usullarini joriy etishga tayyorligini ta'minlaydigan, raqamlashtirish sharoitida "Umurtqasizlar zoologiyasi" kursini o'qitish samaradorligini tajribaviy ravishda asoslashga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 5 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 19 ta ilmiy ish, jumladan 1 ta o'quv qo'llanma, 1 ta uslubiy qo'llanma, 1 ta elektron qo'llanma, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarining chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta maqola, 3 tasi respublika va 5 tasi xorijiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, uchta bob, xulosalar va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 160 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi asoslangan, dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy va mahalliy ilmiy-tadqiqot ishlarining sharhi va muammoning o'rganilganlik darajasi bayon etilgan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, shuningdek ob'ekti va predmeti aniqlangan, tadqiqot ishining ilm-fan va texnologiyalarni rivojlantirishning muhim yo'nalishlariga muvofiqligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi, natijalarning ishonchliligi, nazariy va amaliy ahamiyati, amaliyotga tatbiq etilishi, e'lon qilinganligi hamda ishning tuzilishi haqida malumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Pedagogika oliy o'quv yurtlari talabalariga biologiyani o'qitishning ilmiy, nazariy va uslubiy asoslari**" deb nomlangan birinchi bobida zamonaviy ilmiy yutuqlar va axborot texnologiyalari imkoniyatlarini hisobga olgan holda mavjud ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, "Umurtqasizlar zoologiyasi" kursini ta'limni raqamlashtirish asosida o'qitish metodikasini takomillashtirish masalalari ko'rib chiqilgan, "Umurtqasizlar zoologiyasi" kursini o'qitish jarayonida raqamli texnologiyalarni qo'llagan holda ta'lim samaradorligi va sifatini oshirishning uslubiy asoslari aniqlashtirilgan, "raqamlashtirish" va "kasbiy kompetentlik" tushunchalari ko'rib chiqilgan hamda zamonaviy raqamlashtirilgan ta'lim shakllaridan foydalangan holda ushbu kursni o'qitish metodikasini amalga oshirishda o'qituvchining kreativ kompetentligining roli aniqlangan.

Raqamlashtirish - bu axborotdan inson faoliyatining turli sohalarida samarali foydalanish hamda yangi kommunikativ va bilish qobiliyatlarni shakllantirish maqsadida uni raqamli shaklga transformatsiya qilishdir.

Bir qator mahalliy va MDH olimlarining ta'limni raqamlashtirish va uning zamonaviy ta'limga ta'siri masalalari xususidagi fikrlari ko'rib chiqilgan va tahlil qilingan. Xususan, ta'limga kompyuter texnikasini joriy etishning asosiy yo'nalishlari aniqlangan, raqamli ta'lim muhiti va uning tarkibiy komponentlari tushunchalari ko'rib chiqilgan, mavjud mediaservislar nomlangan va tavsiflangan,

ta'lim sohasiga raqamlashtirishni joriy etish jarayonining ijobiy va salbiy tendensiyalari ta'kidlangan.

Kompetensiyalarning turli tasniflarini tahlil qilar ekan, A. V. Xutorskoy ularning kreativ (ijodiy) yo'nalganligini aniqlagan bo'lib, uni "tajribadan foyda chiqara olish", "muammolarni hal qila olish", "o'tmish va hozirgi voqealar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni ochib bera olish", "yangi yechimlarni topa olish" qobiliyati deb hisoblagan. Shundan kelib chiqib, "kreativlik" tushunchasi va uning bo'lajak biologiya o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirishdagi roli ko'rib chiqilgan.

"Umurtqasizlar zoologiyasi" kursini o'qitish o'qituvchidan kasbiy kompetentligini yuqori darajada egallagan bo'lishni talab etadi, ta'limning raqamli shakllariga asoslangan interfaol o'qitish usullarini qo'llash esa ijodiy fikrlashni rivojlantirishni taqozo etadi, uning asosida o'qituvchining kreativ kompetentligi shakllanadi. Yuqorida bayon etilganlar kontekstida bo'lajak biologiya o'qituvchilarida kreativ kompetentlikni shakllantirish masalalari alohida dolzarb ahamiyat kasb etmoqda va u sun'iy intellektni o'rganish bo'yicha so'nggi tadqiqotlarga asoslangan holda, oliy o'quv yurtlarida "Umurtqasizlar zoologiyasi" kursini o'qitishda kasbiy kompetentlikning ajralmas qismiga aylanishi kerak.

Davlatimizda ta'lim darajasini oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 12 avgustdagi PQ-4805-son "Kimyo va biologiya yo'nalishlarida uzluksiz ta'lim sifati va ilm-fan natijadorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi Qarori qabul qilindi, unda nafaqat nazariy bilimlarni shakllantirishga qaratilgan oliy ta'lim standartlarini, balki xalqaro tajribadan kelib chiqib amaliy ko'nikmalarni ham joriy etish, shuningdek, oliy ta'lim mazmunini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarining barqaror rivojlanishiga munosib hissa qo'shishga qodir bo'lgan yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini yo'lga qo'yish ko'zda tutilgan. Jamiyat taraqqiyotining zamonaviy bosqichida hayotning barcha sohalarini, shu jumladan ta'limni raqamlashtirishni hisobga olgan holda oliy ta'lim tizimini isloh qilish raqamli ta'lim shakllari va usullarini hisobga olgan holda oliy ta'lim tizimini takomillashtirishni talab etadi, buning natijasida alohida e'tibor oliy o'quv yurtlarining ta'lim jarayoniga AKTni joriy etishga qaratilgan, negaki raqamlashtirish davrida oliy ta'lim yangi texnologiyalar va mehnat bozori talablariga sezilarli o'zgarishlar va moslashuvlarni boshdan kechiradi.

Dissertatsiyaning **"Pedagogika oliy o'quv yurtlarida "Umurtqasizlar zoologiyasi" kursini o'qitishning metodologik asoslari"** nomli ikkinchi bobida "Umurtqasizlar zoologiyasi" kursini ta'limni raqamlashtirish asosida o'qitish metodikasini takomillashtirish modeli ishlab chiqilgan bo'lib, "Umurtqasizlar zoologiyasi" kursini ta'limni raqamlashtirish asosida o'qitish metodikasini takomillashtirishning tarkibiy-mazmuniy modelining nazariy-metodologik komponenti hamda o'qitish metodikasini takomillashtirishni baholash mezonlari bayon qilingan, "Umurtqasizlar zoologiyasi" kursini ta'limni raqamlashtirish asosida o'qitish metodikasini takomillashtirishning samarali usullari taqdim etilgan va ilmiy asoslangan, uni amalga oshirish mexanizmi aniqlangan, "Umurtqasizlar

zoologiyasi” kursini ta’limni raqamlashtirish asosida o’qitish jarayonida o’qituvchilarning kasbiy kompetentligini oshirish yo’llari asoslangan.

“Umurtqasizlar zoologiyasi” kursini o’qitish alohida yondashuvni talab qiladi, shu tufayli ushbu kursda o’rganilayotgan ob’ektlar hajmi, morfologiyasi, anatomiyasi, hayot sikllari va tarqalish, rivojlanish va ekologiya xususiyatlariga ko’ra ko’p va xilma-xil bo’lib, bu ko’p sonli ko’rgazmaliliklardan foydalanishni nazarda tutadi. Ushbu kursni o’rganishda ishlatiladigan ko’p sonli terminologiya ham ularni yodlash samaradorligini oshirish uchun turli usullardan foydalanishni talab etadi.

Biroq, shaxsiy kuzatuvlar, adabiyotlarni tahlil qilish, o’qituvchilar va talabalarni anketa so’rovlaridan o’tkazish natijasida shakllar, tuzilmalar, o’lchamlar, jarayonlar, sikllar va qonuniyatlar bilan farq qiluvchi juda ko’p sonli ob’ektlarni o’rganishni o’z ichiga olgan, ushbu kurs bo’yicha katta miqdordagi ma’lumotlar ko’p sonli atamalar va ko’rgazmali materiallardan foydalanishni ko’zda tutadi, ushbu kursda ko’zda tutilgan ko’plab ob’ektlarni har doim ham ularning tuzilishi, yashash muhiti va tarqalishining o’ziga xos xususiyatlari tufayli bevosita o’rganib bo’lmashligi sababli, xotira va fikrlashni faollashtirishning zamonaviy usullarini qo’llashga zarurat tug’iladi, bunda o’quv jarayonini faollashtirish ta’lim tizimidagi innovatsion yondashuvlar asosida, zamonaviy texnologiyalar va dasturlashtirilgan ta’lim vositalari, testlar va boshqa noan’anaviy ta’lim vositalari, shu jumladan raqamli ta’lim shakllari va vositalaridan foydalanish yo’li bilan amalga oshiriladi.

Yuqorida aytilganlar asosida ta’limni “Umurtqasizlar zoologiyasi” kursini ta’limni raqamlashtirish asosida o’qitish metodikasini takomillashtirishning tarkibiy-funksional modeli ishlab chiqildi. Ushbu model “Umurtqasizlar zoologiyasi” kursining o’quv jarayonini tuzishda amalga oshirilgan (1-rasmga qarang).

Ishlab chiqilgan modelning tuzilishi o’zaro bog’liq komponentlardan tashkil topgan murakkab yaxlit tizim bo’lib, ular ma’lum bir ketma-ketlikda amalga oshiriladi va faoliyatli, kompetensiyaviy, tizimli, amaliyotga yo’naltirilgan, shaxsga yo’naltirilgan yondashuvlar nuqtai nazaridan qonuniy, funksional bog’liq komponentlar majmui sifatida ko’riladi:

1. Maqsadli komponent raqamlashtirish davrida zamonaviy talablarga javob beradigan, kasbiy kompetensiyalarga ega yuqori malakali kadrlarni tayyorlash ijtimoiy buyurtmasiga asoslangan.


Qo’yilgan maqsadga erishish quyidagi vazifalarni amalga oshirish va bajarishni talab qiladi:

umurtqasizlar zoologiyasini o’rganishda elektron darsliklar va boshqa raqamli vositalardan kompleks ravishda foydalanishni ta’minlash;

bo’lajak o’qituvchilarda o’z-o’zini anglash va takomillashtirish zaruriyatini shakllantirish;

o’quv jarayonini individuallashtirish hisobiga “Umurtqasizlar zoologiyasi” kursini o’qitish jarayonida raqamli texnologiyalarni qo’llash sohasida talabalarda kompetentlikni shakllantirish;

raqamli ta'lim sharoitida pedagogik kadrlarning yangi turdagi kasbiy faoliyatga zarur va etarli darajada tayyorgarligini shakllantirish uchun shart-sharoitlar yaratish.



1-rasm. Ta'limni raqamlashtirish asosida "Umurtqasizlar zoologiyasi" kursini o'qitish metodologiyasini takomillashtirishning tarkibiy-funksional modeli

2. Mazmuniy komponent ta'lim jarayonini (o'qitish usullari, shakllari, vositalari), o'quv jarayonini tashkil etishning asosiy tamoyillarini (ilmiylik, hammaboplik, ko'rgazmalilik, mustaqil ta'lim, rivojlantiruvchi, tizimli va shaxsga yo'naltirilgan ta'lim), metodologik yondashuvlarni (kompetensiyaviy, kreativ, tizimli, individual), raqamlashtirish davrida oliy ta'lim shart-sharoitlari va tendensiyalarini (onlayn-ta'lim, moslashuvchanlik va individuallashtirish, raqamli savodxonlik ko'nikmalarini rivojlantirish, fanlararolik, ta'lim jarayonida yangi texnologiyalardan foydalanish, raqamli formatdagi o'quv materiallari va manbalari, uzluksiz ta'lim va qayta tayyorlash) o'z ichiga olgan.

3. O'rganilayotgan jarayonning natijaviy-baholash komponenti qo'yilgan maqsadga erishish darajasini tavsiflaydi va universitet talabalarining raqamlashtirish asosida pedagogik faoliyatga tayyorlik darajasini tashhis qilishni, shuningdek, belgilangan maqsaddan og'ishlarni aniqlashni, zarur tuzatishlarni kiritishni o'z ichiga oladi, bu raqamlashtirish asosida mezonlar (kognitiv, motivatsion, kreativ, shaxsga yo'naltirilgan va amaliyotga yo'naltirilgan) va universitet talabalarida pedagogik faoliyatga tayyorgarlikning shakllanganlik darajalarini (ijodiy, samarali, reproduktiv) aniqlash asosida mumkin bo'ladi.

O'zbekistonning raqamli jamiyati rivojlanishining zamonaviy davrida raqamli texnologiyalar hayotning barcha jabhalariga jadal joriy etilib, ta'lim jarayonini tashkil etishda jiddiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Bunda qo'llanilayotgan pedagogik va axborot texnologiyalari, o'qitish usullari hamda vositalari ta'limni raqamlashtirishga qaratilgan. Raqamli ta'limni tashkil etish uchun raqamli resurslardan yoki raqamli ta'lim vositalaridan foydalanish lozim.

Bir qator olimlarning ilmiy-tadqiqot ishlari tahlili hamda Internet manbalaridan olingan ma'lumotlar asosida elektron resurslarning uslubiy maqsadlariga ko'ra tasnifi berilgan (2-rasmga qarang).



2-rasm. Elektron resurslarning uslubiy maqsadlariga ko'ra tasnifi (G.M. Kiselyov i boshqalarga ko'ra).

Raqamli ta'lim vositalari ko'plab o'quv fanlarini o'rganishda talabalarning faolligini oshiradi, biologiya darslarida elektron vositalardan foydalanish esa yangi usullarni joriy etish bilan bog'liq, xususan, umurtqasizlar zoologiyasi bo'yicha raqamli ta'lim resurslari quyidagi shartlarni ta'minlash bilan bog'liq:

taqdim etilayotgan ma'lumotlarning ko'rgazmaliligi va xilma-xilligi (rangli illyustratsiyalar, audio-video yozuvlar, animatsiya va boshqa turlari);

teskari aloqani amalga oshirish (o'zlashtirish darajasini aniqlash uchun testlar tizimi, tezkor nazoratni ta'minlash);

o'quv materiallarini faol va tezlashtirilgan ravishda o'zlashtirish maqsadida o'zini o'zi nazorat qilish ko'nikmalarini o'rgatish;

o'quv qo'llanmalarini doimiy ravishda "kuzatish" va yangi ma'lumotlar bilan boyitish, ya'ni elektron o'quv qo'llanmalarining belgilangan maqsadi asosiy o'quv materialini kelajakda undan foydalanish istiqbollari bilan qo'shimcha yangi ma'lumotlar bilan sintezlashdir

Shuni ta'kidlash joizki, "Umurtqasizlar zoologiyasi" kursini o'qitish turli xil o'qitish usullari va texnologiyalaridan, shu jumladan elektron o'quv qo'llanmalar, elektron ilovalar, fanlarga doir saytlar, mobil testlar va boshqalar kabi raqamli texnologiyalardan foydalanishni talab qiladi, ular talabalarning bilish faolligini oshirishga, ularning ta'lim olishga va mustaqil ta'limga bo'lgan motivatsiyasini oshirishga yordam beradi, bu ushbu kursni o'qitish metodikasini takomillashtirishda dolzarbdir. Ma'lumotlarning ko'rgazmaliligi va ochiqligini hamda talabalar ishini faollashtirish maqsadida "Umurtqasizlar zoologiyasi" kursini o'rganish jarayonida ishlatiladigan turli xil atamalarni mustahkamlash va yodlash imkoniyatini ta'minlash uchun quyidagi ta'lim shakllari tavsiya etilgan:

"Umurtqasizlar zoologiyasi: amaliy va laboratoriya ishlari" elektron o'quv qo'llanmasi;

"Umurtqasizlar zoologiyasi" kursi bo'yicha elektron sayt;

Quizlet mobil ilovasida test sinovlarini o'tkazish va nazorat qilish;

Telegram ijtimoiy tarmog'ida Quiz Bot;

o'quv dasturiga muvofiq tuzilgan "Umurtqasizlar zoologiyasi" kursi mavzulari bo'yicha taqdimotlar va videomateriallar;


"Umurtqasizlar zoologiyasi" kursini ta'limni raqamlashtirishga asosida o'qitish metodikasini takomillashtirish (pedagogika oliy o'quv yurtlari misolida)" eksperimental kursining dasturi;

"Umurtqasizlar zoologiyasi" kursini ta'limni raqamlashtirish asosida o'qitish metodikasini takomillashtirish" eksperimental kursi uchun uslubiy qo'llanma.

Elektron resurslar ma'lumotlaridan foydalangan holda "Umurtqasizlar zoologiyasi" kursini o'qitishni takomillashtirish metodikasi ishlab chiqilgan, ushbu ta'lim shakllaridan ma'ruza, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarining turli bosqichlarida, shuningdek talabalarning mustaqil ishi jarayonida foydalanish imkoniyatlari va bo'lajak biologiya o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini takomillashtirishning samarali usullari ko'rib chiqilgan.

Yuqorida ta'kidlanganidek, ta'limda raqamlashtirishdan foydalanish o'qituvchilar va talabalarda ta'lim jarayoniga ijodiy yondashish, buning natijasida

esa kreativ kompetentlikni shakllantirish va rivojlantirishni nazarda tutadi. Biz tomondan “Umurtqasizlar zoologiyasi” kursini o‘rganish jarayonida talabalarning kreativ kompetensiyasini bosqichma-bosqich shakllantirish chizmasi ishlab chiqildi (3-rasmga qarang).



3-rasm. “Umurtqasizlar zoologiyasi” kursini o‘rganish jarayonida talabalarning kreativ kompetentligini shakllantirishning bosqichma-bosqich algoritm chizmasi

Yuqoridagilarni umumlashtirib, shuni xulosa qilish kerakki, umurtqasizlar zoologiyasi o‘qituvchilarining kasbiy va kreativ kompetentligini rivojlantirish ushbu sohada sifatli ta’limning asosiy omili hisoblanadi, mamlakatimizda ta’lim sohasida ro‘y berayotgan tub innovatsiyalar har bir ta’lim muassasasida raqamli ta’lim shakllari va usullaridan foydalangan holda o‘quv jarayonining uslubiy ta’minotini rivojlantirishni talab qiladi, bu esa, o‘z navbatida, ta’lim jarayonini elektron resurslar bilan uslubiy ta’minlashni talab qiladi.

Dissertatsiyaning **“Umurtqasizlar zoologiyasi” ta’limni raqamlashtirish sharoitida kursini o‘qitish samaradorligini oshirish metodikasining eksperimental asoslanishi**” deb nomlangan uchinchi bobida Toshkent davlat

pedagogika universiteti, Abdulla Qodiriy nomidagi Jizzax davlat pedagogika universiteti va Navoiy davlat pedagogika institutida 2018-2023 yillar davomida uch bosqichda olib borilgan tajribaviy ishlar natijalari mazmuni va tahlili ko‘rilgan. Tajribada biologiya ta’lim yo‘nalish bo‘yicha 410 nafar talabalar ishtirok etishgan (1-jadvalga qarang).

1-jadval

Pedagogik tajribada ishtirok etgan talabalar soni

Pedagogika oliy o‘quv yurtining nomi	Nazorat guruhi	Tajriba guruhi
ToshDPU	97	95
NavDPI	39	39
JizDPU	70	70
Jami:	206	204

